



**INKLYUZIV TA'LIM RIVOJLANISHIDAGI
MUAMMOLAR VA YECHIMLAR**

Namangan Davlat Pedagogika Instituti

*Pedagogika fakulteti Maxsus pedagogika (logopediya) yo'nalishi
3-kurs talabasi*

Karimova Nadiya Baxoniddinovna

Annotatsiya: Ushbu maqolada inklyuziv ta'lim rivojlanishi, uning ta'limning kelib chiqishi, inklyuziv ta'lim haqida umumiy tushuncha, inklyuziv ta'lim rivojlanishidagi muammolar va ularning yechimlari haqida yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Inklyuziv ta'lim, rivojlanish, kamchiliklar, pegagog, siyosat.

Abstract: This article describes the development of inclusive education, its origins, general understanding of inclusive education, problems in the development of inclusive education and their solutions.

Key words: Inclusive education, development, shortcomings, pedagogy, policy.

Аннотация: В данной статье описывается развитие инклюзивного образования, его истоки, общее понимание инклюзивного образования, проблемы развития инклюзивного образования и пути их решения.

Ключевые слова: Инклюзивное образование, развитие, недостатки, педагогика, политика.

Inklyuziv ta'lim bolalarning qobilyatlari va holatidan qat'iy nazar ularning barchasiga sifatli ta'lim berishdan iboratdir. Shu bilan birga, inklyuzivlik tamoyili: imkoniyati cheklangan bolalar ijobiliy ruxiy va ijtimoiy rivojlanishga ega bo'lishlari lozimligi nazarda tutiladi. Inklyuziv ta'lim barcha bolalarga ta'lim olishida teng imkoniyatlar berishga ko'maklashadi.



Bugungi kunda butun dunyoda imkoniyati cheklangan bolalarning inklyuziv ta'limi qanday kechmoqda, qanday to'siqlarga uchramoqda, ta'lim jarayoni ishtirokchilarining hamma bolalarni istisnosiz birga o'qitilishiga munosabati qanday? Huddi shunday savollar hozirgi kunda juda ko'plab kelib tushmoqda. Inklyuziv ta'lim o'zi nima? Qanday ta'lim? Birinchi o'rinda shu savollarga javob beramiz.

Inklyuziv ta'lim tushunchasi o`ziga xos mazmunga ega hisoblanadi. Inklyuziv ta'lim ingliz tilidan olingan bo'lib, inclusive, inclusion – uyg'unlashmoq, uyg'unlashtirish, qamrab olmoq, qamrab olish ma'nolarini bildiradi. Hayot jabhasida nogiron va sog'lom bolalar o'rtasidagi to'siqlarni, ya'ni diskriminatsiyani bartaraf etish, maxsus ta'limga muhtoj bolalar, lekin ayrim sabablarga ko'ra nogiron bo'lgan o'smirlar rivojlanishida uchraydigan nuqsonlar [1] yoki iqtisodiy qiyinchiliklardan qat'iy nazar ijtimoiy hayotga moslashtirishga yo'naltirilgan umumta'lim jarayoniga qo'shishni ifodalovchi ta'lim tizimi. Inklyuziv ta'limning siyosati turli xil ehtiyojli bolalarni ta'lim olishini qo'llaydi, va yutuqga erishishiga yordam beradi hamda yaxshi hayot qurishiga imkon yaratadi. Inklyuziv ta'lim umumta'lim jarayonini rivojlantiradi va barcha bolalarga mos bo'lgan ta'limni joriy qiladi. Imkoniyati cheklangan bolalarning ta'lim olishiga oid qo'shimcha moslamalarni tashkil qilib, qulay sharoit yaratib beradi. Inklyuziv ta'lim turli xil ehtiyojli bolalarning ta'lim olishiga qaratilgan metodologiyani rivojlantirishga harakat qiladi. Inklyuziv ta'lim turli xil ehtiyojlarni qondirishga qaratilgan ixcham turdag'i dars berishga yondashadigan ta'limni ishlab chiqishni amalga oshiradi. Agarda inklyuziv ta'limni tatbiq etishda dars berish, o'qitish bir muncha samarali va unumli bo'lsa, unda nafaqat imkoniyati cheklangan bolalar balki barcha bolalar uchun foydali bo'ladi. Inklyuziv ta'lim maktablari bolalarning bilim olishi uchun shaxsiy huquqlarini himoyalaydi. Bunday yondashuv diskriminatsiyani bartaraf etadi va kamaytiradi.



Inklyuziv ta'lim — barcha talabalar, shu jumladan, nogironlar va ijtimoiy jihatdan himoyalangan guruhlar uchun bir xil ta'lim imkoniyatlarini taqdim etishga qaratilgan ta'lim yondashuvidir.

Inklyuziv ta'lim muammolar:

1. Resurslar etishmovchiligi: Inklyuziv ta'lim uchun zarur bo'lgan maxsus materiallar va o'qituvchilarini tayyorlashda resurslar yetarli emas.
2. O'qituvchilarini tayyorlash: O'qituvchilarning inklyuziv ta'lim bo'yicha bilim va ko'nikmalari ko'pincha yetarli emas, bu esa ta'lim sifatiga ta'sir qiladi.
3. Ijtimoiy stereotiplar: Nogironlar va ijtimoiy jihatdan himoyalangan guruhlar haqida mavjud bo'lgan stereotiplar, ularni jamiyatda o'z o'rnini topishda to'siq bo'lishi mumkin.
4. Maxsus ehtiyojlar: Har bir talabaga individual yondashuv zarur, lekin buni ta'minlash qiyin bo'lishi mumkin.
5. Moliya va siyosat: Ko'plab davlatlarda inklyuziv ta'limga qo'shimcha moliyaviy yordam yetishmaydi, bu esa uni amalga oshirishda qiyinchiliklar keltirib chiqaradi.

Inkyuziv ta'limdagi muammolarni yechish yo'llari

O'qituvchilarini tayyorlash va rivojlantirish dasturlarini kuchaytirish lozim . Chunki birinchi o'rinda bolani sifatli ta'lim olishi uchun malakali pedagoglar kerak bo'ladi.

Resurslar va imkoniyatlarni oshirish kerak. Alovida ehtiyojli bolalar uchun kitoblarni yetarli qilib tayyorlash lozim. Bu bolalarni sifatli bilim olishiga yordam beradi

Jamiyatda inklyuzivlikni targ'ib qilish lozim.

Maxsus tayyorgarlik dasturlari: O'qituvchilar uchun inklyuziv ta'limga doir treninglar va seminarlar o'tkazish.

Mentorlik tizimi: Tajribali o'qituvchilar yordamida yangi o'qituvchilarni qo'llab-quvvatlash.



Texnologiyadan foydalanish: Elektron resurslar va yordamchi texnologiyalar orqali o'quv jarayonini qulaylashtirish.

Individual ta'lif rejalarini tuzish: Har bir talabaning ehtiyojlariga mos keladigan maxsus ta'lif rejalarini ishlab chiqish.

O'qituvchilar va ota-onalar hamkorligi: Ota-onalar bilan muloqotda bo'lish va ularning fikrlarini inobatga olish.

Aloqa va tadbirlar: Jamiyatda inklyuzivlikni targ'ib qiluvchi tadbirlar va kampaniyalar o'tkazish.

Ijtimoiy kampaniyalar: Nogironlar va himoyalangan guruhlar haqida ma'rifat berish.

Moliya mablag'lari: Inklyuziv ta'lifni qo'llab-quvvatlash uchun davlat va xususiy sektordan moliyaviy resurslarni jalb qilish.

Siyosat o'zgarishlari: Ta'lif siyosatini inklyuzivlikni qo'llab-quvvatlaydigan tarzda yangilash.

Tizimli baholash: Ta'lif jarayonini va uning samaradorligini doimiy ravishda baholab borish.

Takliflar va fikrlar: O'qituvchilardan, talabalardan va ota-onalardan fikrlar yig'ish orqali takliflar ishlab chiqish.

Inklyuziv ta'lifni amalga oshirishda bu muammolarni hal qilish muhimdir, chunki har bir bola o'z imkoniyatlarini amalga oshirish huquqiga ega.

Bolalarni bilim olishiga imkon yaratish ham juda muhimdir masalalardan biridir. Yozish qobiliyatlarida buzilish mavjud bo'lgan bolalarga tovush va tasvirni kattalashtirish yetarli bo'lmaydi. Bunda o'quvchilar imo-ishora yoki Brayl yozuvini puxta o'rganishlari zarur. Aqliy nuqsoni bor bolalar soddalashtirilgan yozma yoki og'zaki ma'lumotlarni olishlari kerak. Inklyuziv ta'lifning asosiy maqsadi - yordamga muhtoj bo'lgan bolalarga samarali bilim olish uchun sharoit yaratishdir. Ushbu sharoitda yordamga muhtoj bolalarni integrasiyalash va



reabilitasiya qilish, har bir bolaning rivojlanish darajasini hisobga olgan holda ularga mos samarali inklyuziv talim turini tanlash lozimdir.

Inklyuziya uchun taraqqiyotning muvaffaqiyati yoki muvaffaqiyatsizligi asosan ta’lim muassasalari rahbariyati va xodimlarining qarashlari bilan belgilansanda, inklyuziv ta’lim g‘oyasini so‘zda qo‘llab-quvvatlash, lekin amalda bajara olmaslik holatlari kuzatilishi ta’kidlanadi. Tadqiqotchilar inklyuziv pedagogikasining rivojlanishi, ta’lim muassasalarining ayrim rahbarlarining inklyuziv maktab hamjamiyatlarini tashkil etishda ijodiy yondashuvi, shuningdek, ta’limda tashqarida qolgan bolalarni ta’lim jarayoniga jalg qilishga qaratilgan "Ta’lim hamma uchun" dasturining muvaffaqiyati inklyuziv ta’limni rivojlanib borishida muhim omil sifatida e’tirof etaddilar.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, inklyuziv ta’lim tizimi orqali mamlakatimizda har qanday inson ta’lim olishi va o‘z qobilyatlarini namoyon qilishiga imkon yaratmoqda. Barcha insonlar teng huquqlik hisoblanadi. Har kim bilim olish va o‘z ustida ishlashiga, iste’dodini namoyon qilib bera olishiga egadir. Inklyuziv ta’lim butun mamlakat bo‘ylab rivojlanib borayotganiga qaratilgan islohatlar bunga yaqqol misol bo‘la oladi desak ham mubolag‘a bo‘lmaydi albatta

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ture Yonson - "Inklyuziv ta’lim"- Opereyshen Mersiy", Toshkent-2003 yil. O’qituvchilar uchun qo‘llanma.
2. Roy Mark Konki. "Inklyuziv sinflarda o‘quvchilar ehtiyojlarini anglash va bu ehtiyojlarni qondirish" Toshkent -YUNESKO -2004 yil. O’qituvchilar uchun qo‘llanma.
3. <https://www.unicef.org>
- 4.<https://downsideup.org/elektronnaya-biblioteka/> inklyuzivnoe-obrazovanie zareubezhom-ot-mechty-k-realnosti/